

TILSHUNOSLIK VA PSIXOLOGIYA INTEGRATSIYASI: PSIXOLINGVISTIKA ASOSLARI

Babayeva Gulnora Baxtiyor qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Umida Abdurahim qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslik va psixologiya fanlarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllangan Psixolingvistika yo'nalishining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik, nutq jarayonining psixologik mexanizmlari hamda tilni o'zlashtirish bosqichlari yoritib beriladi. Shuningdek, Noam Chomsky, Lev Vygotsky va Jean Piaget kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida psixolingvistikaning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, tilshunoslik, psixologiya, til va tafakkur, nutq jarayoni, tilni o'zlashtirish, kognitiv jarayonlar, kommunikativ kompetensiya, til o'qitish, lingvistik integratsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы направления Psycholinguistics, сформировавшегося на основе интеграции лингвистики и психологии. В исследовании рассматриваются взаимосвязь языка и мышления, психологические механизмы речевой деятельности, а также этапы усвоения языка. Кроме того, на основе научных взглядов Noam Chomsky, Lev Vygotsky и Jean Piaget анализируются этапы развития психолингвистики.

Ключевые слова: психолингвистика, лингвистика, психология, язык и мышление, речевая деятельность, усвоение языка, когнитивные процессы, коммуникативная компетенция, обучение языку, лингвистическая интеграция.

Abstract. This article highlights the theoretical foundations of Psycholinguistics, a field that has emerged from the integration of linguistics and psychology. The study examines the relationship between language and thought, the psychological mechanisms of speech processes, as well as the stages of language acquisition. In addition, the stages of development of psycholinguistics are analyzed based on the scientific views of Noam Chomsky, Lev Vygotsky, and Jean Piaget.

Keywords: psycholinguistics, linguistics, psychology, language and thought, speech processes, language acquisition, cognitive processes, communicative competence, language teaching, linguistic integration.

Kirish. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti natijasida turli fanlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda psixolingvistika nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki tilni o'zlashtirish jarayonida insonning kognitiv faoliyati, xotira, diqqat va tafakkur kabi psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Shu bois, til o'qitish samaradorligini oshirishda psixolingvistik yondashuvlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumaladan, Noam Chomsky: garchi u generativ grammatika asoschisi bo'lsa-da, uning tug'ma til qobiliyati (inborn language faculty) haqidagi g'oyalari psixolingvistik tadqiqotlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Jorj Miller (George Miller): Nutqni qayta ishlash va xotira jarayonlari bo'yicha tadqiqotlari bilan psixolingvistika rivojiga hissa qo'shgan.

Tahlil va muhokama. Psycholinguistics doirasida til va tafakkur o'rtasidagi munosabat eng muhim va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu ikki hodisa bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonning kognitiv faoliyati aynan til orqali namoyon bo'ladi. Til fikrni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilsa, tafakkur esa mazmuni shakllantiruvchi asosiy jarayon hisoblanadi. Masalan, Noam Chomsky tilni insonning tug'ma qobiliyati sifatida talqin qiladi va tafakkurdan

nisbatan mustaqil tizim sifatida ko'radi. Uning nazariyasiga ko'ra, inson miyasi tilni o'zlashtirish uchun maxsus mexanizmga ega bo'lib, bu mexanizm tafakkur jarayonlaridan qisman mustaqil ishlaydi.

Xususan, Psixolingvistika fanining obyektini aniqlashtirishda A. A. Leontev qayd qilgan *freym* tushunchasini keltirish maqsadga muvofiqdir. Freym u yoki bu obyekt yohud hodisani tasvirlovchi o'lchamlar tizilini ifodalaydi. Masalan, "Ishlovchining shaxsiy varaqasi" (o'lchovlari aniq shaklda keltirilgan)da mazkur shaxsning eng kamida uni ishga qabul qilinishi bilan bog'liq xususiyatlarini tasvirlovchi freym mavjud bo'ladi. Fanda modellashtirilgan aniq hodisalar, odatda, freym tamoyiliga ko'ra qilingan kodda signallarga aylanishi va bu signallarning tinglovchilar tushunchasiga aylanishi jarayonlarini o'rganadi. A. A. Leontev shunday yozadi: "Psixolingvistika til tizimi va lisoniy qobiliyat orasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan". V. Fon Gumboldt tilni "Tashqi dunyo hodisalari va inson botiniy dunyosi" oralig'idagi dunyo sifatida ta'riflagan edi. Faoliyatining til dunyosiga ko'chishi haqidagi g'oya Gumboldtning muhim kashfiyotlaridan biridir. Ushbu g'oya ko'p jihatdan mashhur psixolingvistlar L. S. Vigotsky va A. R. Luriyalarning g'oyalari uchun asos bo'ladi. Haqiqatan ham, Gumboldt aytgandek, nutqiy faoliyat negizida "lisoniy qobiliyat" yotadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik va psixologiya fanlarining integratsiyasi natijasida shakllangan Psycholinguistics inson nutq faoliyatini chuqur va har tomonlama o'rganishga imkon beruvchi muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fan doirasida til va tafakkur o'rtasidagi murakkab va o'zaro bog'liq munosabatlar tahlil qilinib, nutq jarayonining psixologik mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Zamonaviy tilshunoslikda psixolingvistikaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, til o'qitish jarayonida psixologik omillarni hisobga olish, o'quvchilarning til kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, psixolingvistik yondashuvlar nutq faoliyatidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fon Gumboldt V. Tilshunoslik bo'yicha tanlangan asarlar. - M, 1984
2. John Field. Psycholinguistics: A Resource Book for Students. – London: Routledge, 2003.
3. Noam Chomsky. Language and Mind. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
4. Leontev A.A Psixolingvistika asoslari. 1999 Shoira Usmonova Psixolingvistika 2014-y 2-aprel